



UO'K: 811.111'37:008+811.512.133'37:008

Nizomiddin LAPASOV,

Ingliz tili 1-fakulteti yoshlar masalalari va ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail:lapasovnizomiddin@gmail,

O'zDJTU professori, f.f.d A Mo'minova taqrizi asosida

TOLERANTLIK KONSEPTINING MILLIY-MADANIY REPREZENTATSIYASI: INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA

Annotatsiya

Mazkur maqola tolerantlik konseptining lingvomadaniy jihati uning o'zgaruvchan xarakterida ham ko'rinadi. Globallashuv sharoitida bu konsept yangi ma'no qirralarini kasb etmoqda, an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy tendensiyalarning uyg'unlashuvi jarayonida til tizimida yangi ifoda vositalari paydo bo'lmoqda. Tolerantlik nafaqat til birliklari orqali ifodalanuvchi tushuncha, balki madaniyatlararo muloqotni samarali amalga oshirishning samarali vositasi sifatida ham voqelanishi asoslandi.

Kalit so'zlar: Tolerantlik konsepti, lingvokulturologiya, konsept, milliy-madaniy, reprezentatsiya, badiiy matn, qiyosiy tahlil, ingliz adabiyoti, o'zbek adabiyoti, madaniyatlararo muloqot, konseptual tahlil.

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА ТОЛЕРАНТНОСТИ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается лингвокультурный аспект концепта толерантности, который проявляется в его динамичном и изменяющемся характере. В условиях глобализации данный концепт приобретает новые смысловые оттенки, а в процессе взаимодействия традиционных ценностей и современных тенденций в языковой системе формируются новые средства его выражения. Обосновывается, что толерантность представляет собой не только понятие, выражаемое посредством языковых единиц, но и эффективный инструмент осуществления межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: концепт толерантности, лингвокультурология, концепт, национально-культурная репрезентация, художественный текст, сравнительный анализ, английская литература, узбекская литература, межкультурная коммуникация, концептуальный анализ.

THE NATIONAL AND CULTURAL REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF TOLERANCE: A COMPARATIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK LITERARY WORKS

Annotation

This article examines the linguo-cultural aspect of the concept of tolerance, emphasizing its dynamic and evolving nature. In the context of globalization, this concept acquires new semantic dimensions, while the interaction between traditional values and contemporary trends gives rise to new linguistic means of its expression. The study demonstrates that tolerance is not only a concept manifested through linguistic units but also an effective means of facilitating intercultural communication.

Key words: concept of tolerance, linguo-culturology, concept, national and cultural representation, literary text, comparative analysis, English literature, Uzbek literature, intercultural communication, conceptual analysis.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda til va madaniyatning o'zaro munosabatlarini yangi nuqtai nazardan tadqiq etishni globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, turli madaniyatlar o'rtasida o'zaro aloqalarning kengayishi hamda bag'rikenglik va o'zaro hurmat tamoyillarining tobora muhim ahamiyat kasb etishini taqozo etmoqda. Tolerantlik tushunchasi zamonaviy tilshunoslikda universal lingvokulturologik kategoriya sifatida o'rganilib, u tilning madaniy-semantik tabiati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan hodisa hisoblanadi. Lingvistik nuqtai nazardan, tolerantlik olamning lisoniy manzarasining asosiy elementlaridan biri bo'lib, turli leksik, grammatik va pragmatik shakllarda ifodalanadi hamda qabul qilish, hurmat, tushunish kabi tushunchalar bilan bog'liq leksik birliklar orqali namoyon bo'ladi.

Asosiy qism. Ilmiy izlanishlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki T.V. Petkovaga ko'ra, tolerantlik tushunchasi plyuralizm, kelishuv, erkinlik va tenglik kabi munosabatlar tizimining asosiy qismlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shubhasiz, tolerantlikning tub negizi "boshqachalikni tan

olish" va "o'zgachalik" kabi leksemalar orqali ziddiyatdan ko'ra, tushunish va moslashish tamoyillari ustuvorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, olimaning tarixiy yondashuvi asosida bu tushunchaning milliy va xalqaro darajadagi ijtimoiy o'zaro munosabatlarni shakllantirishdagi strategik ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi [1]. Demak, tolerantlik nafaqat axloqiy-etik platforma, balki ijtimoiy tuzilmalarni yuksaltiruvchi va madaniy rivojlanishga ta'sir ko'rsatuvchi kognitiv ahamiyatga ega omil sifatida ham qaralishi lozim.

M.P. Axidjakova va L.A. Donskovalarning olib borgan tadqiqotlarida tolerantlik tushunchasi masalasi nutq faoliyatining emosional-psixologik jihatlari kontekstida ko'rib chiqiladi. Ilmiy asoslarga ko'ra, tolerantlik til kompetensiyasining natijasi sifatida talqin qilinib, unda motivlik va hamkorlikdagi o'zaro ta'sir aktuallashadi [2]. Zamonaviy tilshunoslik nazariyasining asoslaridan kelib chiqib, tolerantlik tushunchasi insoniy emosional barqarorlikka asoslanib, insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida uyg'un

emosional munosabatlarni rivojlantiruvchi til vositalari orqali samarali tarzda realizatsiya qilinadi.

Shuni ta'kidlash joizki, tolerantlik axloqiy meyorlarni o'z ichiga olgan lingvokulturalogik hodisa bo'lib insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonlarida uyg'un emosional munosabatlarni rivojlantiruvchi til vositalari orqali samarali tarzda realizatsiya qiluvchi vositadir.

V.I. Karasik tolerantlik konseptini lingvokulturologiyaning eng asosiy kategoriyasi deb hisoblab, uning tarkibida tushunchaviy, obrazli va qadriyat komponentlari mavjudligini ko'rsatadi [3]. Uning fikricha, tolerantlik nafaqat jamiyatning axloqiy qadriyatlarini ifodalovchi madaniy fenomen hisoblanadi balki lug'aviy ma'noga ega birlik sifatida ham talqin qilinadi. Shuning uchun muallifning bahosi va madaniy ramzlarda badiiy matnlarda tolerantlik personajlarining nutqi orqali ifodalanadi.

S.G. Vorkachev konseptni til va madaniyatlar o'rtasidagi bog'lovchi birlik sifatida baholaydi [4]. Olim konseptning shakllanishi haqida tolerantlik konsepti turli madaniy muhitlarda turlicha semantik tarkibga ega bo'ladi. Uning yondashuviga ko'ra, milliy tafakkur va tarixiy taraqqiyot muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Z.D. Popova va I.A. Sternin konseptni inson ongidagi bilimlar tizimining bir qismi sifatida izohlaydi [5]. Ularning fikricha, tolerantlik konseptini o'rganishda badiiy matnlar muhim lingvistik material vazifasini bajarishini konseptning mazmuni til birliklari, frazeologizmlar, metaforalar va badiiy obrazlar orqali namoyon bo'lishini ta'kidlab o'tadi.

Lingvistik jihatdan qaralganda, tolerantlik emosional-xulqiy mexanizmlarini ham o'z ichiga olgan murakkab til birligi sifatida namoyon bo'luvchi tushuncha sifatida namoyon bo'lib "o'zgachalik"ni qabul qilishning kognitiv komponentlarini o'z ichiga oladi.

Sotsiolog M. Hjerm va hammualliflari tolerantlikni faqatgina siyosiy institutlar va madaniy muhit ta'sirida shakllanuvchi ko'p omilli hodisa sifatida izohlanadigan shaxsiy fazilat emas, balki ijtimoiy me'yorlar va empirik mezonlar asosida o'lchash va uning tarkibiy elementlarini alohida tahlil qilishni taklif etadi [6]. Ularga ko'ra tolerantlikni yagona sifat emas, balki turli vaziyat va ijtimoiy guruhlariga nisbatan namoyon bo'ladigan ko'p qirrali fenomen sifatida o'rganishni taklif etganlar.

Tolerantlik konseptining muloqot strategiyalari sifatida nutqiy aloqaga oid mulohazalar, munosabatlar, aqliy stereotiplar va qoidalarining ma'lum bir uyushmagan majmuini ifodalaydi. Muloqot kategoriyalarining maqsadi - muloqot normalari va qoidalari haqidagi ma'lumotlarni tartibga solish va jamiyatdagi inson nutqining shu jamiyatda o'rnatilgan qoidalarga muvofiqligini ta'minlashdir [7].

"Bag'rikenglik" "tolerantlik" konseptining lingvomadaniy jihatdan konseptining oddiy tarjimai emas, balki uning o'zbek madaniyatida va milliy tafakkurida shakllangan ekvivalenti hisoblanadi. Ushbu konsept to'liq sinonim sifatida emas, balki mazmunan yaqin, ammo konseptual va madaniy jihatdan farqlanuvchi konseptlar sifatida talqin qilinadi. "Tolerantlik" konsepti universal xususiyatga ega bo'lsa-da, "bag'rikenglik" o'zbek xalqining tarixiy tajribasi, bundan tashqari diniy-axloqiy qarashlari va milliy mentaliteti bilan boyitilgan, kengroq emotsional-ekspressiv mazmun kasb etgan.

Ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy adabiyotlarda tolerantlik konsepti uning badiiy talqini hamda milliy-madaniy reprezentatsiyasi sezilarli darajada farq qiladi, chunki u umumiy gumanistik mazmunga. Ingliz va o'zbek xalqlarining tarixiy taraqqiyoti, diniy qarashlari, ijtimoiy tuzumi va madaniy qadriyatlari bilan yaqqol namoyon bo'ladi.

Ingliz adabiyotida tolerantlik konsepti ko'proq individual inson huquqlari, erkinlik, tenglik va madaniy rang-barang tasvirlash bilan bog'liq holda ifodalanadi. Ayniqsa, ingliz adabiyotida irqiy va diniy munosabatlar, migratsiya, postkolonial jarayonlar, madaniyatlararo muloqot tushunchalari tolerantlik konseptining ma'nosini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bunday badiiy asarlarda qahramonlarning boshqa madaniyat vakillari bilan munosabatlari, har bir shaxsning o'zligini anglash jarayoni hamda jamiyatning madaniy xilma-xillikka munosabati markaziy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ingliz adabiyotida tolerantlik ko'pincha "respect", "acceptance", "equality", "diversity", "freedom" kabi tushunchalar bilan bog'liq holda ifodalanadi.

Tolerantlik konsepti o'zbek asarlarida avvalo, milliy qadriyatlar tizimi bilan uyg'un holda aks ettiriladi. Qahramonlarning axloqiy fazilatlarini ularning xatti-harakatlari ko'pincha jamoa manfaatini, o'zaro hurmatni va ijtimoiy hamjihatlikni saqlashga qaratish sifatida talqin qilinadi. Asarlarda bag'rikenglik oilaviy munosabatlar, qo'shnihilik, mehr-oqibat, muruvvat, sabr-toqat, kechirimlilik va insonparvarlik kabi tushunchalar orqali ochib beriladi.

Shu bilan bir qatorda lingvistik jihatdan ham muayyan farqlar kuzatiladi. Tolerantlik konsepti ingliz badiiy matnlarida ko'proq leksik birliklar va inson individual huquqlariga oid terminlar orqali chuqur tahlil qilinsa, o'zbek adabiyotida u milliy-madaniy mazmunni aks ettiruvchi obrazli vositalar, maqollar, iboralar, diniy-axloqiy tushunchalar hamda urf-odatlar bilan bog'liq til birliklari orqali tasvirlanadi. Natijada o'quvchi tolerantlikni nafaqat g'oya sifatida, balki milliy qadriyatlarining ajralmas qismi, kundalik hayot me'yorlari sifatida qabul qiladi.

Ingliz adabiyotida tolerantlik, ko'proq shaxs va jamiyatda insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy tamoyil sifatida talqin etiladi. O'zbek adabiyotida esa tolerantlik, insoniy munosabatlarning ma'naviy asosi sifatida namoyon bo'luvchi oilaviy va ijtimoiy totuvlikni ta'minlovchi umuminsoniy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Bu o'z navbatida tolerantlik konseptining universal xususiyatga ega bo'lishiga qaramay, har bir xalqning tarixiy xotirasi, mentaliteti va qadriyatlar va dunyo qarashlaridan kelib chiqib o'ziga xos tarzda shakllanishida konseptning milliy-madaniy reprezentatsiyasini ko'rishimiz mumkin.

Natijada, ingliz va o'zbek adabiyotidagi tolerantlik konseptining namoyon bo'lishi insonparvarlik g'oyalarini ulug'lash bilan bir qatorda, milliy-madaniy omillar ta'sirida konsept semantik jihatdan mazmuniy, aksiologik yo'nalishi va badiiy ifoda vositalari orqali ajralib turadi. Ushbu madaniyatlararo muloqotning lingvistik asoslarini chuqurroq anglash lingvokulturologik tahlilning asosiy vazifalaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Ingliz va o'zbek adabiyotida tolerantlik konseptining umuminsoniylik mohiyatga ega ekanligi qiyosiy va nazariy jihatdan tahlil qilinganda yaqqol namoyon bo'ladi. Ingliz adabiyotida ham o'zbek adabiyotida ham insonlar o'rtasidagi qadr-qimmat, o'zaro hamjihatlik, hurmat qilish, adolat va insonparvarlik kabi fazilatlarini, g'oyalari ustuvor o'rin egallaydi hamda ushbu tushunchalar turli madaniyatlarda turlicha ahamiyat kasb etadi. Ingliz adabiyotida tolerantlik asosan individual erkinlik, insoniy huquqlar, irqiy segratsiya va diniy tenglik, migratsiya hamda madaniy xilma-xillikni tan olish orqali ifodalansa, o'zbek adabiyotida u bag'rikenglik, mehr-oqibat, muruvvat, sabr-toqat, kechirimlilik, qo'shnihilik va oilaviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi.

Mazkur farqlar ikki xalqning va ijtimoiy-madaniy tajribasi bilan izohlanadi. Ingliz jamiyati ko'p asrlar davomida

tolerantlikni demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri sifatida shakllanishiga siyosiy islohotlar, postkolonial migratsiya jarayonlar, hamda multikulturalizm ta'siri turtki bo'lib xizmat qilgan. O'zbek madaniyatida esa tolerantlik azaldan shakllangan mahalla tizimi, oilaviy munosabatlar, diniy-ma'naviy qadriyatlar va Sharqona axloq me'yorlari bilan uyg'unlashgan holda rivojlangan. Natijada, tolerantlikning universal mohiyati saqlanib qolgan bo'lsada, uning lingvokulturologik mazmuni milliy madaniyat ta'sirida sezilarli darajada farqlanadi.

Lingvistik jihatdan tolerantlik konsepti ingliz va o'zbek tillarida turli verbal vositalar orqali voqelanadi. Ingliz badiiy matnlarida "respect", "acceptance", "diversity", "freedom", "equality" kabi leksik birliklar konseptning asosiy yadrosini tashkil etsa, o'zbek badiiy matnlarida "bag'rikenglik", "mehr-oqibat", "muruvvat", "insonparvarlik", "kechirimlilik", "hamjihatlik" kabi birliklar konseptning milliy-madaniy mazmunini ifodalaydi. Bu esa konseptning semantik yadrosi umumiy bo'lishiga qaramay, uning periferik qatlamlari turli madaniy qadriyatlar bilan boyishini ko'rsatadi.

Shuningdek, nazariy tahlil tolerantlik konseptining badiiy matnda faqat alohida so'zlar orqali emas, balki syujet rivoji, personajlar xarakteri, dialoglar, ramziy obrazlar va muallifning estetik pozitsiyasi orqali ham ifodalanishini ko'rsatdi. Bu holat konseptni lingvokulturologik jihatdan o'rganishda kompleks yondashuvni qo'llash zarurligini tasdiqlaydi.

Demak, tolerantlik konseptining milliy-madaniy reprezentatsiyasini qiyosiy tahlil qilish ingliz va o'zbek xalqlarining dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi hamda madaniy tafakkuridagi umumiy va o'ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Mazkur tadqiqot natijalari lingvokulturologiya, qiyosiy tilshunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalaridagi ilmiy izlanishlarni boyitishga, shuningdek, badiiy matnlarni konseptual tahlil qilish metodologiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular tolerantlik konseptining ingliz va o'zbek adabiyotidagi verbal hamda madaniy ifodalanish mexanizmlarini chuqurroq anglash uchun nazariy asos yaratadi va keyingi tadqiqotlarda alohida badiiy asarlar misolida yanada batafsil empirik tahlillar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Petkova T.V. The Idea of Tolerance – John Locke and Immanuel Kant // Open Journal for Studies in Philosophy. – 2019. – 3(1). – P. 18.
2. Ахиджакова М.П., Донскова Л.А. Эмотивность и коммуникативная толерантность в структуре эмоциональности художественного текста // Гуманитарные и социальные науки. – 2021. – № 3. – С. 69.
3. Karasik, V. I. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград: Перемена. (2002). – 477 с.
4. Воркачев, С. Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании. Филологические науки. -(2001). -№1, - 64–72.
5. Попова З. Д., Стернин И. А. Когнитивная лингвистика. Москва: АСТ; Восток–Запад. (2007).- с.67
6. Hjern, M., Eger, M. A., Bohman, A., & Fors Connolly, F. A New Approach to the Study of Tolerance: Conceptualizing and Measuring Acceptance, Respect and Appreciation of Difference. Social Indicators Research, (2020). 147(3), 897–919.
7. Апресян Р. Г. идея морали и базовые нормативно-этические программы. М., 1995.